

Kutubxona-betakror koshona va ma'rifat kamalagi

Oliy o'quv yurti kutubxonalari bilimlarning asosiy manbasi va saqlovchi xazinasiga bo'lib kelgan. Ular «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda belgilab berilgan bilimli, malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Davlatimiz rahbarlarining va yuqori tashkilotlarning barcha hujjatlari, milliy istiqlol g'oyasiga oid adabiyotlar shu kutubxona orqali targ'ib qilinadi va o'rgatiladi. Institutimizning "Qishloq va suv xo'jaligi energiya ta'minoti" fakultetining TTTEM 1-kurs talabalari guruh murabbiylari A. Mustafoulov va A. Pardayevlar rahbarligida A. Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasiga tashtif buyurdilar.



Ushbu kutubxona hozirda mamlakatimizdagi barcha axborot-kutubxona muassasalari uchun muvofiqlashtiruvchi va uslubiy markaz vazifasini o'tamoqda. Kutubxona huzurida tashkil etilgan Respublika uslubiy kengashi kutubxonalar faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlash, alohida kutubxonalar uchun namunali nizomlar, uslubiy-bibliografik qo'llanmalarni joriy etishga doir tavsiyalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanmoqda. Shuning bilan bitga talabalar kutubxonaga doimiy a'zo bo'lib o'zlari qiziqqan adabiyotlardan bahramand bo'ldilar.



TIQXMMI matbuot xizmati